NIZOLI OILALARNI BARQARORLASHTIRISH MEXANIZMLARINI O‘RGANISH XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA

Bo‘riyeva Mahbuba Shavkatovna
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kammunikatsiyalar universiteti ,
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
E-mail: mahbubaburieva6@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada nizoli oilalarni mustahkamlashda oilaviy nizolarning sabablari, ularning oldini olish va oila barqarorligini ta’minlash bo‘yicha samarali mexanizmlar, shuningdek, muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va hal etish bo‘yicha ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: oila, munosabatlar, xotin-qizlar, nizo, ziddiyat, muloqot, qadriyat, ajrimlar va nikohlar**.**

STABILIZATION OF CONFLICT FAMILIES EXAMPLE OF THE EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN THE STUDY OF MECHANISMS

ANNOTATION

This article highlights the causes of family conflicts in strengthening conflict families, effective mechanisms for their prevention and ensuring family stability, as well as the experience of advanced foreign countries in timely identification and resolution of problems.

Keywords: family, relationships, women, conflict, conflict, communication, value, divorces, and marriages**.**

KIRISH.

Hozirgi davrda oila, oila-nikoh munosabatlari, oiladagi psixologik muhit, ta’lim-tarbiya va uning ijtimoiy psixologik xususiyatlarini tadqiq etish muhim muammolardan biri hisoblanadi.

Yurtimizda oilani mustahkamlash, yoshlarimizni har tomonlama yetuk va barkamol insonlar qilib tarbiyalash, oilani jamiyatning boshqa muhim ijtimoiy tuzilmalari kabi jamiyatimizdagi ma’naviy o‘zgarishlar bilan uyg‘un tarzda rivojlantirish, uning nufuzini oshirish masalasiga

davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishi sifatida doimiy e’tibor berib kelinmoqda. Ijtimoiy hayotda, shaxslararo munosabatlarda ayrim alohida nizolar, o‘zaro kelishmovchiliklar bo‘lib turishi muqarrar. Odatda, nizo deb, qarama-qarshi yo‘nalgan qarashlarga, noxush hissiy kechinmalar bilan bog‘liq guruhlararo yoki shaxslararo munosabatlar orqali ifodalanuvchi to‘qnashuvlarga aytiladi. Psixologik nuqtai nazardan talqin etganda, odamlarga halokatli ta’sir etadigan jihat bu – nizolarning o‘zi emas, balki ularning oqibati hisoblanadi. Nizolar oqibatida inson ruhiyatida qo‘rqinch, vahima, adovat kabi salbiy hislar yuzaga keladi. Agar mazkur kechinmalar kuchli bo‘lsa va uzoq muddat davom etsa, odamda himoya reaksiyasi paydo bo‘lishi va mustahkamlanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «Oilalarda nosog‘lom munosabatlar, qaynona-kelin, er-xotin o‘rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o‘z joniga qasd qilish holatlari borligi shaxsan meni qattiq iztirobga solmoqda» degan fikrlari ushbu masalagi qanchalik jiddiy e’tibor qaratishimiz lozim ekanligini ko‘rsatadi.

NATIJALAR.

Polshada oila institutidagi o‘zgarishlar ijtimoiy va iqtisodiy omillar bilan bog‘liq bo‘lib, nikohga kirish yoshi oshmoqda, ta’lim darajasi o‘smoqda, netraditsion oila shakllari ommalashmoqda. Biroq iqtisodiy muammolar, ishsizlik va mehnat bozoridagi gender muammolari oila qurish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda va bolalar sonining kamayishiga olib kelmoqda.

1990-yillarda nikohga kirish yoshi ayollar va erkaklar orasida ancha yosh edi: erkaklarning yarmidan ko‘pi, ayollarning 73% dan ziyodlari 25 yoshgacha nikoh qilayotgan edi. 2007 yilga kelib bu ko‘rsatkichlar sezilarli kamaygan — erkaklarda 25,5%, ayollarda 46% gacha tushgan. Bu shaharlarda yosh nikohga kirishning kamayishi bilan bog‘liq bo‘lib, shaharlardagi nikohga kiruvchilar qishloqdagilarga nisbatan kattaroq yoshda bo‘lishadi.

Polshada an’anaviy nikohlardan tashqari, netraditsion oila shakllari ham ommalashmoqda: sojitellik, LAT (Living Apart Together) kabi aloqalar — ya’ni birga yashash bilan birga alohida turadigan juftliklar. Yoshlar bu munosabat shakllariga nisbatan liberal bo‘lib, 50% dan ortiq respondentlar farzand tug‘ilishidan oldingi bunday munosabatlarni ma’qullaydi.

Polsha Markaziy statistika boshqarmasi (GUS) [1]oilalar tendensiyalarini, jumladan yoshi kattalarning ona-ota bilan yashashi, ajrimlar va nikohlarni kuzatib boradi.

[1]https://www.the-warsaw.pl/102047/kazhdyj-tretij-vzroslyj-zhitel-polshi-ostaetsja-zhit-s-roditeljami-a-ne-sozdast-sobstvennuju-semju-issledovanie-gus/

2024 yilda yangi ilmiy fan — «Oilashunoslik» kiritilishi rejalashtirilgan, bu institutni ilmiy nuqtai nazardan o‘rganish va an’anaviy oilaviy qadriyatlarga to‘g‘ri kelmaydigan g‘oyalarga qarshi turishga qaratilgan.

2024 yilda Turkiyada 568 395 ta nikoh va 187 343 ta ajralish qayd etilgan. Nikohning o‘rtacha yoshi erkaklarda 28,3 yosh, ayollarda 25,8 yoshni tashkil qildi. Bu Turkiyada odamlar nikohni avvalgidan kechroq qoldirayotganini anglatadi. Bu ta’lim darajasining oshishi, martaba ambitsiyalari, qadriyatlar va imtiyozlarning o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ajrashganlarning ulushi 2014 yilda 3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilda 5 foizga ko‘tarildi. Gender bo‘yicha ajralishlar ko‘rsatkichi ayollar o‘rtasida erkaklarnikidan yuqori, turmush qurganlar bo‘yicha esa erkaklar oldinda. Bundan tashqari, hech qachon turmushga chiqmaganlar orasida erkaklar ulushi yuqori ekanligi qayd etilgan.

TUIK ma’lumotlari, shuningdek, nikoh va ajralish ko‘rsatkichlari bo‘yicha sezilarli mintaqaviy farqlarni ko‘rsatadi. 2023 yilda ajralish va nikoh darajasi eng yuqori bo‘lgan viloyatlar mos ravishda Kilis, Aksaray va Gaziantep, eng pasti esa Gümüşhane va Tunceli. Ajralishlar sonida ham xuddi shunday ko‘rinishni ko‘rish mumkin: 2023-yilda ajralishlar darajasi eng yuqori bo‘lgan viloyat Izmir, eng pasti esa Hakkari edi. Buni Izmirning yanada erkin va liberal odamlar yashaydigan katta shahar ekanligi, Hakkari esa konservativ va etnik guruhlar hukmronlik qiladigan chekka viloyat ekanligi bilan izohlash mumkin. Aniqlanishicha, nikohdan ajrashish to‘g‘risidagi ish yuritish natijasida 171 ming 213 nafar bolaning 74,9 foizi onalar va 25,1 foizi otalar vasiyligiga o‘tkazilgan.

2025 yilgacha Turkiya hukumati ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun 651 milliard lira ajratdi. Bu 2024-yil uchun ajratilganidan 154 milliardga ko‘pdir. Moliyalashtirishning asosiy yo‘nalishlari keksalar uchun pensiyalar, bolalar va ishlaydigan onalarni qo‘llab-quvvatlash edi. 2024-yilda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash to‘lovlari o‘tgan yilga nisbatan 30,98 foizga oshirildi. 2025-yil uchun ko‘zda tutilgan o‘sish sur’ati davlat xizmatchilarining maoshlarini oshirish bilan parallel ravishda belgilanadi. Oila va ijtimoiy xizmatlar vazirligi bolalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ularning ta’lim xarajatlarini qoplash yordam berishga alohida e’tibor qaratmoqda. 2025 yilda bolalar nafaqalari ham indekslanadi, bu kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Turkiya Mehnat va ijtimoiy ishlar vazirligi ishlayotgan onalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan dasturni joriy qilmoqda. Dasturga ko‘ra, tug‘ruq ta’tilidan ishga qaytgan ayollar 12 oy davomida 11 339 lira miqdorida oylik yordam olishlari mumkin bo‘ladi. Ushbu mablag‘lar onalarga enaga uchun pul to‘lash imkonini beradi, shuning uchun ular hech qanday muammosiz ishga qaytishlari mumkin.

Turkiyada oilalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator dasturlar va islohotlar amalga oshirilgan. 2015-yilda elon qilingan yangi "OILA" islohoti doirasida quyidagi chora-tadbirlar joriy etilgan:

Psixologik yordam: Oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida 5 ming nafar maxsus psixolog xodimlardan iborat guruh tashkil etilib, ular oilalarga psixologik yordam ko'rsatish vazifasini bajaradi.

Onalik izni va yarim kunlik ish: Yangi tug'gan onalarga onalik ta’tilidan so‘ng, birinchi farzandda 2 oy, ikkinchi farzandda 4 oy va uchinchi farzandda 6 oygacha yarim kun ishlash imkoni beriladi. Nogiron farzandlarning onalari esa 6 oygacha yarim kun ishlash huquqiga ega. Yarim kun ishlagan onalar to‘liq maosh olishadi, farq davlat tomonidan to‘lanadi.

Qo‘shimcha ta’tillar: Nogiron farzandi bo‘lgan onalarga yillik 10 kun qo‘shimcha ta’til beriladi. Xususiy sektorda ishlaydigan otalar uchun otalik ta’tili 5 kun qilib belgilangan, dam olish kunlari bilan birga 7 kunga to‘g‘ri keladi.

Moliyaviy yordam: Yangi farzand ko‘rgan onalarga birinchi farzand uchun 300 turk lirasi, ikkinchi farzand uchun 400 turk lirasi va uchinchi farzand uchun 600 turk lirasi miqdorida bir martalik to‘lov amalga oshiriladi.

Bolalar bog‘chalari: Barcha munitsipalitetlar bolalar bog'chalari ochishga majburdir.

To‘yona dasturi: Turmush qurmoqchi bo‘lgan yoshlar uchun sep mablag‘i ajratiladi. Ota-ona farzandini turmushga bergunga qadar yoki uylantirgunga qadar yig‘ilgan mablag‘ning 15 foizi davlat tomonidan to‘lov sifatida beriladi.

Malayziyada 2023 yilda nikoh va ajralishlar soni pasaygan. Malayziya Statistika Departamenti (DOSM) bayonotiga ko‘ra, 2023 yilda mamlakatda nikohlar soni 188,1 mingta bo‘lib, 2022 yildagi 215,022 tadan 12,5 foizga kamaygan. Shunday qilib, nikoh ko‘rsatkichi 2022 yildagi 6,6 dan 2023 yilda har ming aholiga 5,7 ga tushdi. DOSM ma’lumotlariga ko‘ra, kuyovlar va kelinlarning o‘rtacha yoshi mos ravishda 28 va 26 yoshda saqlanib qolgan. Shu bilan birga, Malayziyada ajralishlar soni 8,7 foizga kamayib, 2022 yildagi 63 338 tadan 2023 yilda 57 835 taga yetdi. Shunday qilib, ajralishlarning umumiy koeffitsienti 2022-yildagi 1,9 dan 2023-yilda 1,8-ga tushdi. DOSM ma’lumotlariga ko‘ra, erkaklar va ayollar o‘rtasida eng ko‘p ajralishlar 30-34 yosh guruhida kuzatilmoqda.

Malayziyada zaif qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash va barchaning farovonligini oshirishga qaratilgan mustahkam ijtimoiy dasturlar tizimi mavjud. Hukumat sog'liqni saqlash, ta’lim, uy-joy va ijtimoiy himoya kabi keng ko‘lamli ijtimoiy xizmatlarni qamrab olgan qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda.

Sog‘liqni saqlash. Malayziyada barcha fuqarolarga sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatini beruvchi universal sog‘liqni

saqlash tizimi mavjud. Milliy sog‘liqni saqlash tizimi bepul tibbiy ko‘riklar, dori-darmonlar, kasalxonaga yotqizish va boshqa zarur xizmatlarni taklif etadi. Nogiron va keksalarga yordam berish uchun maxsus dasturlar mavjud.

Ta’lim. Malayziya ta’limga ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili sifatida e’tibor qaratadi. Barcha bolalar bepul boshlang‘ich va o‘rta ta‘lim olish huquqiga ega. Kam ta’minlangan oilalar talabalariga oliy ta’lim olishlari uchun davlat tomonidan stipendiya va grantlar ham ajratilmoqda. Ta‘lim muassasalari ish joyidagi ko‘nikmalarni rivojlantirish va o‘quvchilarni kelajakdagi mehnat bozoriga tayyorlashga e’tibor qaratadi.

Uy-joy. Arzon uy-joy bilan ta’minlash Malayziya hukumati uchun ustuvor vazifa hisoblanadi. Milliy uy-joy dasturi kam ta'minlangan oilalar uchun uy-joy mulkdorligini yanada qulayroq qilish uchun turli xil ipoteka kreditlari va yordam sxemalarini taklif etadi. Hukumat kam ta’minlangan oilalar va uysizlar uchun ham arzon uylar qurmoqda.

Ijtimoiy himoya. Malayziyada pensiyalar, ishsizlik sug‘urtasi va daromadlarni qo‘llab-quvvatlashni qamrab oluvchi keng qamrovli ijtimoiy ta’minot tizimi mavjud. Milliy ijtimoiy ta’minot tizimi keksalarni pensiya bilan ta’minlash, shuningdek, bevalar, etimlar va nogironlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatadi. Bantuan Rakyat (Kambag'al daromadga ko'maklashish sxemasi) qashshoqlik chegarasidan past bo‘lgan oilalarga moliyaviy yordam beradi.

Malayziyada ayollar o‘z biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishga qaratilgan qator dastur va tashabbuslar mavjud. Bularga quyidagilar kiradi:

-Malayziya tadbirkorlik va kooperativni rivojlantirish jamg‘armasi (MEDAC): MEDAC tadbirkor ayollarga foizsiz kreditlar va grantlar beradi.

- Malayziya tadbirkor ayollar assotsiatsiyasi (MAWEN): MAWEN – tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlovchi va ularning imkoniyatlarini kengaytiruvchi tarmoq.

- Tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi (EWDP): EWDP ayol tadbirkorlarga treninglar, maslahatlar va biznes xizmatlarini taqdim etadi.

Ushbu dastur va tashabbuslar ayollarning Malayziyada o‘z bizneslarini boshlashlari uchun qulay sharoit yaratishga yordam berdi.

Malayziyada Ruhiy salomatlik assotsiatsiyasi (MMHA) notijorat, nodavlat tashkilot bo‘libi, 1966 yildagi Jamiyatlar to‘g‘risidagi qonunga muvofiq ro‘yxatdan o‘tgan. MMHA jamiyatdagi manfaatdor tomonlar va mutaxassislardan, jumladan, ruhiy salomatlik muammosi bo‘lgan odamlarga g‘amxo‘rlik qiluvchilardan iborat saylangan qo‘mita tomonidan boshqariladi. Assotsiatsiyaning asosiy vazifasi:

- Jamiyatda ruhiy salomatlikni mustahkamlash.
- Ruhiy salomatlik sohasida davolash, profilaktika va tadqiqotlarning yuqori standartlarini ilgari surish.

- Ruhiy kasallarga reabilitatsiya xizmatlarini ko'rsatish.
- Psixiatriya shifoxonalarida bemorlarning manfaatlarini va farovonligini himoya qilish.
- Ruhiy kasalligi bo'lgan odamlarning vasiylari va oila a'zolariga yordam ko'rsatish.

MMHA deyarli har bir shaxsning ehtiyojlarini qondirish uchun turli shakllarda ruhiy salomatlikni qo'llab-quvvatlaydi, shu jumladan terapevtik xizmatlarini bolalarga, oilalarga, er-xotinlarga va individual har bir shaxsga taklif etadi.

MUHOKAMA.

2024 yilda oilaviy ajrim bilan bog'liq nizoli oilalar soni 35847 tani tashkil etdi. Ajratuvchi nizolar er-xotin orasidagi mehrning susayib, yo‘qolib borishiga olib keladi. Bu esa ota-ona va farzandlari orasidagi munosabatlarga ham salbiy ta’sir qiladi. Oiladagi har qanday kelishmovchiliklar ba’zan oilalarning ajralib ketishiga sabab bo‘ladi.

Oilalarning buzilishiga tobora avj olib ketayotgan ichkilik va giyohvandlik ham sabab bo'lmoqda. Erkaklar spirtli ichimlik va giyohvandlik moddalariga ruju qo'yishi hamda oilaga e’tiborsizligi tufayli oilalar inqirozga yuz tutgan. Oila a’zolari orasida o‘zaro hurmat, odob kabi insoniy fazilatlarga asoslangan munosabatlarning barham topishi ham ajralishga sabab bo'lgan.

Ma’lumki, amaldagi qonunlarda nizolarning vujudga kelishini kamaytirish, ularning oldini olish, vujudga kelish sabablarini o'rganish va bartaraf etish, sudga qadar hal qilish choralarini ko'rish, sudga tegishlilik va sudlovlilik zarurati sezilsa, sudlarda qonuniy tartib-taomillarga asosan hal qilish tartibi va usullari belgilangan.

Biroq nizolarni sudga qadar hal qilish, shuningdek, nizolar sud jarayonida ko‘rilayotganda ham yarashtiruv tartib-taomillarini qo‘llash eng maqbul va samarali usul sanaladi. Chunki nizolar, kelishmovchilik va ziddiyatlarni murosa orqali bartaraf etish shaxs, oila, mahalla, jamiyat, davlat, muayyan organ yoki tashkilot uchun juda foydalidir.

Hozirgi kunda jahon miqyosida nizolarni hal qilishda yarashtiruv institutining o'rni tobora kengayib bormoqda. Aniqroq aytganda, taraqqiy etgan davlatlarda mediatsiya sohasini tartibga soluvchi maxsus qonunlar qabul qilinayotgani hamda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilayotgani buning isbotidir.

XULOSA.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, fuqarolik nizolarini hal etish bo‘yicha xorijiy davlatlarda qo‘llanilayotgan usullari orqali mediatsiya tinch yo‘l bilan nizoni bartaraf etishga erishiladi. Eng muhimi, mediatsiya o‘zaro rozilik va ixtiyoriylik asosida boshlanadi. Undan istalgan vaqtda chiqib ketish va zaruratga ko‘ra, uni yana tiklash mumkin. O‘zaro kelishuv asosida tanlash imkoniyatining mavjudligi hamda ma’lumotlarning maxfiy

saqlanishiga kafolat berilishi, mediatsiyaga murojjat qilinishi keyinchalik sudga murojaat qilishni cheklamasligi ham bu usulning afzalliklari hisoblanadi.

REFERENCES

1. Mirziyoev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik. // Halq so‘zi. –T., 2017 yil. 16 iyun.
2.https://alanyabrand.ru/article/antalya-zanyala-vtoruyu-strochku-v-spiske-provintsij-turtsii-s-naibolshim-kolichestvom-razvodov
3.https://english.news.cn/asiapacific/20241121/8c852ac38c9c4cfe890c6692a34f662a/c.html#:~:text=The%20highest%20number%20of%20marriages,2023%20from%201.9%20in%202022.
4.https://cgreality.ru/blogs/news
5. https://islam.uz/statya/3177